

TIBBIYOTDA QO'LLANILISHIGA DOIR YO'RIQNOMA ASKOTSIN MAK

Preparatning savdo nomi: Askotsin Maks

Ta'sir etuvchi modda (XPN): askorbin kislotasi va rux

Dori shakli: vishillovchi tabletkalar

Tarkibi:

Har bir vishillovchi tabletkada quyidagilarni saqlaydi:

faol moddalar:

Vitamin C (L-askorbin kislotasi) - 1000 mg;

Rux sitrat trigidrat ruxga ekvivalent -10 mg;

yordamchi moddalar: sorbitol (E420), suvsiz limon kislotasi, bikarbonat natriy, suvsiz karbonat natriy, aspartam (E951), atsesulfam kaliy, natriy xloridi, SD apelsin ta'mli IF 1212 xushbo'y aromatizatori, annato 1% pudra bo'yog'i, polietilenglikol 6000.

Ta'rifi: och-to'q sariqdan to'q sariq ranggacha, dog'li, ikki tamoni yassi, dumaloq shaklli tabletkalar.

Farmakoterapevtik guruhi: Askorbin kislotasi boshqa dori preparatlari bilan majmuada.

ATX kodi: A11GB

Farmakologik xususiyatlari

Farmakodinamikasi

C vitamini: askorbin kislotasi – muhim suvda eruvchan vitamin va antioksidantdir. Organizmning C vitaminini to'plash qobiliyati pastligi tufayli odam uchun vitaminning etarli miqdorda muntazam iste'mol qilinishi muhimdir.

Askorbin kislotasi va uning metaboliti degidroaskorbin kislotasi – qaytariluvchan oksidlash-tiklash tizimi bo'lib, u ko'plab fermentativ reaksiyalarda ishtirok etadi va C vitamini ta'sir doirasining asosini tashkil etadi. Askorbin kislotasi tiklovchi ekvivalentlarni ta'minlaydigan fermentlarga elektronlarni uzatgan holda, bir qator gidroksillash va amidirlash reaksiyalarida kofaktor sifatida ta'sir ko'rsatadi.

Askorbin kislotasining odam organizmi uchun ahamiyatli klinik namoyon bo'ladigan C vitamini etishmovchiligidadir, ya'ni singa (lavsha, milk) kasalligida yaqqol ifodalanadi. Askorbin kislotasi prolindan gidroksiprolin paydo bo'lishida muhim rol o'ynaydi, u, o'z navbatida, funksional faol kollagen ishlab chiqarilishida kerak. Yaralar bitishining sekinlashishi, suyaklar o'sishi buzilishi, qon tomirlar mo'rtligi va dentin paydo bo'lishi buzilishi kabissinga simptomlari kollagen paydo bo'lishi buzilishining natijasi hisoblanadi.

Rux: C vitamini kabi ruxning quyi darajasi ham jaroxatlar, yaralar va yotoq yaralar tana sohalari bitishi tezligiga salbiy ta'sir etishi mumkin.

Rux mavjudligi samarali immun javobni, ayniqsa, bilvosita T-hujayralar tomonidan javobni ta'minlash uchun katta ahamiyatga ega.

Farmakokinetikasi

So'rilishi

Askorbin kislotasi, asosan, natriyga bog'liq faol transport orqali ingichka ichakning yuqori qismida so'riladi. Askorbin kislotasi yuqori konsentratsiyalarda ishtirok qilgan holatda, singish passiv diffuziya orqali amalga oshiriladi. 1–12 g doza peroral qabul qilinganidan so'ng so'rilgan askorbin kislotasining qismi taxminan 50% dan taxminan 15% gacha kamayadi, garchi singdirilgan moddaning mutlaq miqdori ko'payishda davom etadi.

Rux ingichka ichakda soʻriladi. Och qoringa eritmada yuboriladigan rux (ionli) absorbsiyasi 41–79% doirasida oʻzgarib turadi, oziq-ovqat mahsulotlari yoki ovqatlanish vaqtida qoʻshimchalar tarkibidagi rux esa 10–40% diapazonida soʻriladi.

Taqsimlanishi

Organizmida C vitaminining fiziologik zaxirasi taxminan 1500 mg ni tashkil etadi. Askorbin kislotasining plazma oqsillari bilan bogʻlanishi taxminan 24% ni tashkil etadi. Zardobdagi konsentratsiyasi, odatda, 10 mg / l (60 mkmol / l)ni tashkil etadi. 6 mg / l (35 mkmol / l) dan kamroq konsentratsiyalar C vitaminining isteʼmol qilinishi har doim ham adekvat boʻlmashligidan dalolat beradi, 4 mg / l (20 mkmol / l)dan kamroq konsentratsiyalar esa C vitaminining isteʼmol qilinishi haqiqatan ham etarlicha emasligidan dalolat beradi. Singa kasalligi klinik namoyon boʻlishida zardobdagi konsentratsiyasi 2 mg / l (10 mkmol / l)dan kamroq boʻlgan.

Organizmida ruxning umumiy tarkibi qisman ichaklarda soʻrilishi samaradorligini boshqarish va rux gomeostazini tutib-turish uchun ruxning endogen yoʻllari orqali chiqarilishi taʼminlanadi. Katta yoshdagi patsient organizmida ruxning umumiy tarkibi ayollarda 2,3 mmol (1,5 g)dan erkaklarda 3,8 mmol (2,5 g)gacha oʻzgarib turadi. Rux organizmning barcha aʼzolari, toʻqimalari, suyuqliklari va sekretsialari tarkibida mavjud. Rux – birinchi navbatda, ichki hujayraviy ion boʻlib, organizmda ruxning 95% dan koʻproq qismi hujayralarda saqlanadi. Rux hujayraning barcha organellari bilan bogʻlangan, biroq hujayraviy ruxning 60% dan 80% gacha qismi sitozolda saqlanadi.

Metabolizmi

Askorbin kislotasi degidroaskorbin kislotasi orqali oksalat kislotasi va boshqa mahsulotlarga qisman metabolizmga uchraydi. Biroq askorbin kislotasi haddan tashqari miqdorda ichga qabul qilinganida, asosan, siydik va axlat bilan oʻzgarmagan shaklda chiqariladi. Askorbin kislotasining 2-sulfati ham siydikda metabolit shaklida paydo boʻladi.

Asosiy toʻqimalardagi ruxning umumiy miqdori plazmadagi ruxning umumiy miqdoridan ancha koʻproq. Shunday qilib, jigar kabi toʻqimalardagi rux tarkibining nisbatan kichik variatsiyalari plazmadagi rux tarkibiga kuchli taʼsir etishi mumkin. Barcha soʻrilgan rux plazma orqali toʻqimalarga oʻtadi va odatda, plazma orqali rux oqimi kuniga taxminan 130 marta almashinadi. Ruxning maxsus “depoziti” yoʻq. Rux quyi tarkibli parhezlarda boʻlgan odamlarda oʻtkazilgan tajriba tadqiqotlarida (kuniga 2,6–3,6 mg / kuniga 40–55 mmol) aylanuvchi rux darajalari va rux saqlaydigan fermentlar faolligi bir necha oy davomida norma doirasida taʼminlanishi mumkinligi isbotlangan, bu rux gomeostazi mexanizmining samaradorligidan dalolat beradi.

Chiqarilishi

Organizmida askorbin kislotasining fiziologik zaxirasi taxminan 1500 mg ni tashkil etadi. Askorbin kislotasining yarim chiqarilish davri yuborilish usuliga, yuboriladigan miqdoriga va soʻrilish tezligiga bogʻliq boʻladi. 1 g peroral qabul qilinganidan soʻng askorbin kislotasining yarim chiqarilish davri taxminan 13 soatni tashkil etadi. Kuniga 1–3 g C vitamini qabul qilinganida buyrak orqali chiqarilish asosiy chiqarilish yoʻli hisoblanadi. 3 g dan yuqori dozalarda preparatning koʻproq miqdori axlat bilan oʻzgarmagan shaklda chiqariladi.

Ruxning endogen chiqish asosiy yoʻli – meʼda-ichak yoʻliga, soʻngra axlat bilan chiqariladi. Ruxning indikator dozalari peroral yoki vena ichiga yuborilganida, faqat 2% dan 10% gacha miqdori siydik bilan chiqariladi; qoldigʻi axlat bilan chiqariladi. Odamlarda axlat bilan endogen yoʻqotishlar haddan tashqari kam isteʼmol qilinganida kuniga <15 mkmol (kuniga 1 mg) darajada va haddan tashqari koʻp isteʼmol qilinganida kuniga 80 mkmol (kuniga 5 mg) darajada oʻzgarib turishi mumkin. Odatda, har kuni 6 mkmoldan 9 mkmolgacha (400–600 mkg) rux siydik bilan chiqariladi.

Qoʻllanilishi

Askorbin kislotasi bilan rux vishillovchi tabletkalari (Askotsin Maks) C vitamini va rux tanqisligini davolash uchun qoʻllaniladi.

Qo'llash usuli va dozalari

Dozalash

Katta yoshdagi patsientlar va 12 yoshdan katta bolalar uchun: kuniga bir stakan (200 ml) suvda aralashtirib eritilgan 1 tadan vishillovchi tabletka.

Qo'llanish usuli: peroral usulda qabul qilinadi.

Nojo'ya ta'sirlari

Quyida taqdim qilingan dori preparati noxush reaksiyalari preparat qayd etishdan so'ng qo'llanilgan vaqtda aniqlangan. Ushbu reaksiyalar to'g'risida spontan ma'lum qilinishi tufayli ular takrorlanish tezligini ishonchli baholash mumkin emas.

Me'da-ichak yo'llari tomonidan buzilishlar: diareya, ko'ngil aynishi, qayt qilish, me'da-ichak yo'lida va qorinda og'riqlar.

Immun tizim tomonidan buzilishlar: allergik reaksiya, anafilaktik reaksiya, anafilaktik shok.

O'ta yuqori sezuvchanlik reaksiyalari tegishli laboratoriya va klinik belgilar bilan birga allergik astma sindromini, teriga, nafas yo'llariga, me'da-ichak yo'liga va yurak-qon tomirlar tizimiga potensial ta'sir etuvchi engil darajadan o'rtacha darajaligacha reaksiyalarni, shu jumladan toshma, eshakemi, allergik shish va angionevrotik shish, qichishish, kardiorespiratorli distress kabi simptomlarni va jiddiy reaksiyalar, shu jumladan anafilaktik shokni o'z ichiga oladi.

Qo'llash mumkin bo'lmagan holatlar:

- Preparatning faol yoki yordamchi moddalaridan biron biriga yuqori sezuvchanlik.
- Hozirgi vaqtda yoki anamnezida nefrolitiaz bo'lgan patsientlar ushbu preparatni qabul qilmasliklari kerak.
- Oksalat buyrak toshi kasalligi yoki oksaluriya bo'lgan patsientlar ushbu preparatni qabul qilmasliklari kerak.
- Og'ir darajali buyrak etishmovchiligi bo'lgan patsientlar, shuningdek dializdagi patsientlar ushbu preparatni qabul qilishlari mumkin emas.
- Gemoxromatoz bo'lgan patsientlar ushbu preparatni qabul qilishlari mumkin emas.

Dorilarning o'zaro ta'siri

Dori preparatlari bilan o'zaro ta'siri

Askorbin kislotasi

Desferioksamin: C vitamini to'qimalarda, ayniqsa, yurak sohasida yurak dekompensatsiyasini chaqirgan holda bez toksikligini kuchaytirishi mumkin.

Siklosporin: C vitamini qonda siklosporin darajasini kamaytirishi mumkin.

Varfarin: C vitamini yuqori dozalari varfarin samaradorligiga ta'sir etishi mumkin.

Rux

Rux ayrim moddalar (shu jumladan, tetratsiklin antibiotiklar, xinolon antibiotiklar, penitsillamin) bilan majmualarni hosil qiladi, bu har ikki moddalarning so'rilishining kamayishiga olib keladi. Ushbu o'zaro ta'sirlar me'da-ichak yo'lida yuz berishi tufayli preparatni boshqa dori preparatlaridan alohida qabul qilish orqali o'zaro ta'sir ehtimolini kamaytirish kerak. Odatda, ushbu preparat qo'llanilishini, agar boshqacha buyurilmagan bo'lsa, boshqa dori preparatini qabul qilishgacha eng kamida 2 soat oldin yoki boshqa dori preparati qabul qilinganidan so'ng 4-6 soatdan keyin alohida amalga oshirish etarli bo'ladi.

Oziq-ovqat mahsulotlari bilan o'zaro ta'siri

Mis

Rux mis so'rilishini kamaytirishi mumkin.

Laboratoriya o'zaro ta'sirlar

C vitamini kuchli tiklaydigan agentligi tufayli u glyukoza, kreatinin, karbamazepin, siydik kislotasi hamda siydik, zardobdagi noorganik fosfatlar va axlatdagi yashirin qon tahlili kabi laboratoriya tadqiqotlarida oksidlash-tiklash reaksiyalarini o'z ichiga oladigan kimyoviy

to'siqlarni chaqirishi mumkin. C vitamini laboratoriya tadqiqotini o'tkazishga xalaqit qilishi yoki qilmasligini aniqlash maqsadida ishlab chiqaruvchiga axborot olish uchun murojaat qiling.

Maxsus ko'rsatmalar

Buyrak etishmovchiligi bo'lgan patsientlar askorbin kislotasining katta dozalarini qabul qilishdan oldin shifokor yoki tibbiyot xodimi bilan maslahatlashishlari kerak ("Dozaning oshirib yuborilishi" bo'limiga qarang).

Tavsiya etilgan dozalardan oshirib yubormang. O'tkir darajali yoki surunkali dozaning oshirib yuborilishi (kuniga > 2 g) nojo'ya ta'sirlar xavfini, shu jumladan oksalat kalsiy asoratlari, o'tkir darajali kanallar nekrozi va/yoki buyrak etishmovchiligi paydo bo'lishi xavfini oshiradi ("Dozaning oshirib yuborilishi" bo'limiga qarang).

Glyukoza-6-fosfataza tanqisligi bo'lgan patsientlar tavsiya etilgan dozalardan yuqori dozalarni qabul qilmasliklari kerak. Ushbu patsientlar guruhida C vitamini dozasining oshirib yuborilishi gemolitik anemiya bilan bog'liq bo'lgan ("Dozaning oshirib yuborilishi" bo'limiga qarang).

Boshqa alohida vitaminlar yoki yarim vitaminli preparatlarni, har qanday boshqa dori preparatlarini qabul qilayotgan patsientlar yoki tibbiy kuzatuvda bo'lgan patsientlar ushbu preparatni qabul qilishdan oldin shifokor bilan maslahatlashishlari kerak ("Dorilarning o'zaro ta'siri" va "Dozaning oshirib yuborilishi" bo'limlariga qarang).

Preparat qo'llanilishini, agar boshqacha buyurilmagan bo'lsa, boshqa dori preparatlarini qabul qilishdan 4 soat farq bilan alohida amalga oshiring ("Dorilarning o'zaro ta'siri" bo'limiga qarang).

C vitamini laboratoriya tadqiqotlari o'tkazilishiga xalaqit qilishi mumkin, bu esa noto'g'ri ko'rsatkichlarga olib keladi. Agar ushbu dori preparatini qabul qilayotgan bo'lsangiz va tashxislash laboratoriya tadqiqotlari rejalashtirilayotgan yoki o'tkazilayotgan bo'lsa, o'z shifokoringizga ma'lum qiling.

C vitamini glyukoza darajasini o'lchaydigan glyukometrlar va test-to'plamlar ko'rsatkichlarini buzib ko'rsatishi mumkin, bu esa noto'g'ri ko'rsatkichlarga olib keladi. Marhamat, tavsiyalar olish uchun test-to'plam yoki glyukometr o'ram idishidagi ilova bilan solishtiring ("Dorilarning o'zaro ta'siri" bo'limiga qarang).

Askotsin Maks vishillovchi tabletkalari fenilalanin manbaini saqlaydi va tegishli ravishda, fenilketonuriya bo'lgan patsientlar uchun zararli bo'lishi mumkin.

Ushbu dori preparati bitta tabletkada 194 mg natriyni saqlaydi, bu BSST tomonidan tavsiya etilgan katta yoshdagi odam uchun 2 g natriy iste'molida maksimal sutkalik normaning 9,7% ga ekvivalentdir. Bu natriy tarkibi nazoratli parhezga rioya qiladigan patsientlarda hisobga olinishi kerak.

Kam uchraydigan fruktozaga chidamsizlik irsiy kasalliklari bo'lgan patsientlar ushbu dori preparatini qabul qilmasliklari kerak.

Homiladorlik va laktatsiya davrida qo'llanilishi

Homiladorlik va laktatsiya

Preparat yo'riqnomaga muvofiq qo'llanilgan holatda homiladorlik va laktatsiya davrida xavfsiz hisoblanadi. Biroq, odamlarda preparatning homiladorlik yoki laktatsiya davrida qo'llanilishi xavfini baholaydigan etarlicha nazoratli tadqiqotlar yo'qligi tufayli preparat faqat klinik ko'rsatkichlarga va shifokorning buyurishiga asosan qo'llanilishi kerak.

Qayd etilgan dozadan oshirib yuborish tavsiya etilmaydi, chunki surunkali dozaning oshirib yuborilishi homilaga va yangi tug'ilgan chaqaloqqa zarar etkazishi mumkin.

C vitamini va rux ko'krak sutiga o'tadi. Bu, agar chaqaloq biron-bir boshqa qo'shimchalar qabul qilayotgan bo'lsa, hisobga olinishi kerak.

12 haftalikkacha yoshdagi chaqaloqlarda aspartam qo'llanilishini baholash uchun klinika oldi ma'lumotlari ham, klinik ma'lumotlar ham yo'q.

Fertillik

Bugungi kunda C vitamini va/yoki rux odam reproduktiv funksiyasiga salbiy ta'sir etishining hech qanday dalil-isbotlari yo'q.

Avtotransportni va murakkab mexanizmlarni boshqarish qobiliyatiga ta'siri

Preparat avtotransportni boshqarish va boshqa mexanizmlardan foydalanish qobiliyatiga ta'sir ko'rsatmaydi yoki ahamiyatsiz darajada ta'sir ko'rsatadi.

Dozaning oshirib yuborilishi

Preparat tavsiyalarga muvofiq qo'llanilgan holatda ushbu preparat dozasi oshirib yuborilishiga olib kelishi mumkinligining hech qanday dalil-isbotlari yo'q.

Barcha boshqa manbalardan C vitamini va rux iste'mol qilinishini hisobga olish kerak.

Dozaning oshirib yuborilishi klinik belgilari va simptomlari, laboratoriya ma'lumotlari va oqibatlar juda xilma-xil bo'lib, odam moyilligiga va atrof-muhitdagi vaziyatlarga bog'liq bo'ladi.

C vitamini va rux dozasi oshirib yuborilishi umumiy belgilari me'da-ichak yo'li tomonidan buzilishlarni, shu jumladan diareya, ko'ngil aynishi va qusishni o'z ichiga olishi mumkin.

Agar bunday simptomlar paydo bo'lsa, preparatni qabul qilishni to'xtatish va shifokor bilan maslahatlashish kerak.

Spetsifik klinik belgilar quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

C vitamini: C vitamini dozasining o'tkir darajali yoki surunkali oshirib yuborilishi zardobda va siydikda oksalatlar darajasini sezilarli ravishda oshirishi mumkin. Ayrim holatlarda bu giperoksaluriyaga, oksalat kalsiy kristalluriyasiga, oksalat kalsiy to'planishiga, buyraklarda tosh paydo bo'lishiga, tubulointerstitsial nefropatiyaga va o'tkir darajali buyrak etishmovchiligiga olib kelishi mumkin. Engil va o'rtacha og'irlik darajasida buyrak etishmovchiligi bo'lgan patsientlar kamroq dozalarda C vitaminining ushbu toksiklik ta'sirlariga moyil bo'lishlari mumkin, shu tufayli preparat qo'llanilishidan oldin shifokor bilan maslahatlashishlari kerak.

C vitamini dozasining oshirib yuborilishi glyukoza-6-fosfatdegidrogenaz tanqisligi bo'lgan patsientlarda oksidlash gemoliziga yoki disseminatsiyalangan ichki qon tomirlar quyulishiga olib kelishi mumkin.

Rux: rux dozasining oshirib yuborilishi me'da-ichak yo'li yallig'lanishini va korroziyasini, o'tkir darajali buyrak kanallari nekrozini, interstitsial nefritni, mis tanqisligini, sideroblast anemiyasini va mieloneyropatiyani chaqirishi mumkin.

Preparat dozasining oshirib yuborilganligi taxmin qilingan holatda, preparat qo'llanilishini to'xtatish va klinik simptomlarni davolash uchun shifokor bilan maslahatlashish kerak. S vitamini gemodializ orqali chiqariladi.

Chiqarilish shakli

10 yoki 20 tadan tabletka polipropilen tubaga quritgichli spiral qopqoq bilan birga o'rab joylashtirilgan. Har bir bunday tuba tibbiyotda qo'llanilishiga doir yo'riqnoma bilan birga karton o'ramda.

Saqlash sharoiti

Quruq yorug'likdan himoyalangan joyda, 25°C dan yuqori bo'lmagan haroratda saqlansin.

Bolalar ololmaydigan joyda saqlansin.

Yaroqlilik muddati

3 yil.

Preparat yaroqlilik muddati tugaganidan so'ng qo'llanilmasin.

Dorixonalardan berish tartibi

Retseptsiz beriladi.

Ishlab chiqaruvchi

Kusum Healthcare Pvt. Ltd.

Ishlab chiqarish manzili

Plot No. M-3, Indore Special Economic Zone,
Phase-II, Pithampur, Dist.-Dhar, Madhya Pradesh-454774, Hindiston.

**O'zbekiston Respublikasi hududida dori preparatlarining sifati bo'yicha e'tirozlar
(takliflar)ni qabul qiluvchi tashkilot nomi va manzili:**

"BARAKA DORI FARM" MCHJ XK

100022, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik xalka Yuli ko'chasi, 91 uy.

Tel.: + (99878) 150-97-97, + (99878) 150-97-87

Uyali tel.: + (99893) 388 87 82

Email: pv@kusum.uz

Web-sayt: kusum.uz